



KONSTITUTSIYA YOSHLAR HUQUQIY KAFOLATINING MUHIM ASOSI

Хо‘jayev Mo‘minjon Isoxonovich,
Alfraganus xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi rahbari

КОНСТИТУЦИЯ ЯВЛЯЕТСЯ ВАЖНОЙ ОСНОВОЙ ПРАВОВОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ МОЛОДЁЖИ

Аннотация: Масштабные реформы, проведенные в нашей стране за годы независимости, направлены на укрепление национальной государственности и суверенитета, обеспечение безопасности и правопорядка, нерушимости границ нашей страны, верховенства закона в обществе, прав и свобод человека, атмосферы межнационального согласия и религиозной

толерантность, разработка Конституции независимого Узбекистана является важным фундаментом, гарантирующим будущее, является одной из главных задач.

Ключевые слова: Страна, независимость, реформы, суверенитет, общество, закон, Конституция, гарантии.

THE CONSTITUTION IS AN IMPORTANT BASIS OF YOUTH LEGAL ASSURANCE

Annotation: The large-scale reforms carried out in our country during the years of independence, to strengthen national statehood and sovereignty, to ensure security and law and order, the inviolability of our country's borders, the rule of law in society, human rights and freedoms, an environment of inter-ethnic harmony and religious tolerance, the development of the Constitution of independent Uzbekistan is an important foundation of the future guarantee is one of the main tasks.

Key words: Country, independence, reform, sovereignty, society, law, Constitution, assurance.

Annotasiya: Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibot, davlatimiz chegaralari daxlsizligi, jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklari, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun mustaqil O‘zbekistonning o‘z Konstitutsiyasini ishlab chiqish kelajak poydevorining kafolati ekanligi bosh vazifalardan biridir.

Kalit so‘zlar: Mamlakat, mustaqillik, islohot, suverenitet, jamiyat, qonun, Konstitutsiya, kafolat.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining yangi Konstitutsiyasini yaratish haqidagi ilk g'oya 1990-yil mart oyida bo'lib o'tgan 12-chaqiriq Respublikamiz Oliy Kengashining 1-sessiyasida aytilgan edi. O'zbekiston Oliy Kengashining 1990-yil 20-iyunda e'lon qilingan «Mustaqillik deklaratsiyasi» yangi Konstitutsiyanı ishlab chiqishga asos bo'ldi. Oliy Kengash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligidagi 64 kishidan iborat yangi konstitutsiyaviy komissiya tuzdi. Komissiya tarkibiga deputatlar, davlat hamda jamoat tashkilotlari, korxona xo'jaliklarining rahbarlari, taniqli huquqshunoslar, olimlar va mutaxassislar jalb qilindi.

Konstitutsiya loyihasining dastlabki varianti 1991-yilning 3-choragida tayyorlab bo'lindi. U muqaddima, 6 bo'lim, 158 muddadan iborat bo'ldi.

TAHLIL

«Davlat mustaqilligi assoslari to'g'risida»gi Qonunda xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari muqaddasligi, qonun ustuvorligi, hokimiyat bo'linishi, mamlakatning hududiy yaxlitligi kabi prinsiplar mustahkamlandi. Ushbu demokratik prinsiplar Konstitutsiya mazmunidan joy oldi.

Shunga qaramasdan, dastlabki loyiha hali mukammallik darajasidan ancha yiroq edi. 1992-yilning bahorida Konstitutsiya loyihasining 149 muddadan iborat ikkinchi varianti ham ishlab chiqildi.

Asosiy Qonunimiz yaratilishining murakkab va muhim, ayni chog'da sharaflı solnomasiga nazar solar ekanmiz, hech shubhasiz, O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning mustaqillik sari uzoq yo'ldagi izlanishlari natijasi ekaniga komil ishonch hosil qilamiz.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarishida O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi uchun g'oyaviy asos bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Konstitutsiya har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida qabul qilinib, avvalo, mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, o'ziga xos o'q, birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan huquqiy, ijtimoiy-siyosiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi. Konstitutsiya qabul qilinishining o'tish davridagi amaliy ahamiyati shundaki, u xalqimizni oliy maqsad sari birlashtirib, aholining turli qatlamlari manfaatlarini himoya qiluvchi kafolat vazifasini bajarishi shubbasizdir.

Davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yosolar ta'lif-tarbiysi va kelajagiga beriladigan

e'tibor darajasiga chambarchas bog'liqdir. Shu ma'noda O'zbekistonda yosolar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'naliishlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2018-yil 4-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senati Raisi, Qonunchilik palatasi Spikeri, siyosiy partiyalar rahbarlari, Bosh vazir va uning o'rinosarlari, Prezidentning Davlat maslahatchilar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, vazirlik, idora va tashkilotlar rahbarlari ishtiroy etgan videoselektor yig'ilishi yosolar bilan manzilli va tizimli ishlash, ular uchun munosib sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash masalalariga bag'ishlandi. Yig'ilishdahar bir yosha jamiyatda o'zo'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'naliishlaridan biri ekanligi ta'kidlandi.

2018-yilning 6 oyi davrida sodir etilgan 17,5 ming jinoyatning qariyb 31 foizi yosolar hisobiga to'g'ri kelishi, mamlakat bo'yicha jinoyat sodir etgan 22 ming shaxsnинг 11 ming nafarini yosolar tashkil etganligi sababli mutasaddi organ va rahbarlarga bir qator vazifalar yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, «Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat».

Darhaqiqat, O'zbekistonda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan. Davlatning Asosiy qonuni — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida yoshlarga oid bir qator huquqiy me'yorlar belgilab berilgan. Konstitutsiyaning ikkinchi bo'limida o'z ifodasini topgan shaxsiy huquq va erkinliklar, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar bobti, jamiyat va shaxs bo'limidagi jamoat birlashmalari, oila kabi boblar shular jumlasidandir.

Parlement tomonidan esa yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilinagan bo'lib, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilinadi.

2016-yil 14-sentyabrda yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi. Ushbu qonunda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagicha belgilandi:

- ochiqlik va shaffoflik;
- yoshlarga oid davlat siyosatini ro'yobga chiqarishda yoshlarning ishtiroy etishi;
- yosolar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlanirish;
- ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarining ustuvorligi;



— yoshlarning kamsitilishiga yo'l qo'yilmasligi.
 Yoshlarga oiddavlat siyosatining asosiy yo'nalishlariga esa quyidagilar kiritildi:
 — yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
 — yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash;
 — yoshlarning ma'nnaviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish;
 — yoshlar uchun ochiq va sifatlari ta'limni ta'minlash;
 — yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;
 — yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;
 — yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish;
 — yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;
 — iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish;
 — yoshlar tadbirdorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
 — yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
 — yosh oilalarni ma'nnaviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;
 — yoshlarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish.

XULOSA

Mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatlari, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'limgan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komilshaxslarsifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari

Adabiyotlar:



1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2018.
2. «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2016-yil 14-sentyabr.
3. «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasining rivojlantirishning beshta ustuvoryo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi» PF-4947-son, 2017-yil 7-fevral.
4. O'zbekiston – yoshlar mamlakati. «Taraqqiyot strategiyasi» markazi ma'lumoti. 2019-yil 24-iyul.

safidan o'r'in olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

Ma'lumki, «2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvoryo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da yoshlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan quyidagi ustuvor vazifalar belgilandi:

birinchidan, jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtayi nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faoliygini oshirish;

ikkinchidan, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirdorlik sohasiga jalb etish;

uchinchidan, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash va ro'yobga chiqarish, bolalar va yoshlar o'tasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish.

O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati aniq maqsadlarni ko'zlagan holda, bosqichma bosqich, kompleks chora-tadbirlarga asoslanib izchil davom ettirilmoqda.

Bu borada Shavkat Mirziyoyev tomonidan ijtimoiy, ma'nnaviy-ma'rifiy sohalardagi sa'y-harakatlarni tizimli asosda yo'lga qo'yish bo'yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilishi O'zbekiston tarixida yoshlar ta'lim-tarbiyasi bo'yicha yana bir yangi bosqichni boshlab berdi.

Birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.

Uchinchi tashabbus – aholi va yoshlar o'tasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalananishni tashkil etishga qaratilgan.

To'rtinchi tashabbus – yoshlar ma'nnaviyatini yuksaltirish, ular o'tasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.

Beshinchi tashabbus – xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutadi.

Davlat rahbarining bu ezgu g'oyasi O'zbekiston xalqi, ayniqsa, yoshlari tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olinib, qisqa vaqt ichida mamlakat bo'ylab keng quloch yozdi.